

QISHLOQ XO‘JALIGI TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAHLILI

Maxmudova Dilafuz Alijonovna

Qo‘qon davlat universiteti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasida o‘qituvchisi

dilafuzmaxmudova137@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilidagi qishloq xo‘jaligi faoliyatining asosiy tushunchalari terminologik ifodalanishi xususida fikrlar keltirilgani bilan qimmatlidir. Shuningdek qishloq xo‘jaligi terminlarining etimologik xususiyatlari, hamda o‘zbek adabiyotidagi namunalari ilmiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *qishloq xo‘jaligi terminlari, etimologik tahlil, o‘xshatish, metafora, lingvopoetika, badiiy nutq, obrazlilik, semantika.*

Qishloq xo‘jaligi terminlarining etimologik tahlili tadqiqotchilardan alohida yondashuvni talab qiladi. Bu sohaning terminlarini o‘rganishda ularning kelib chiqishi, shakllanishi hamda ma’no qonuniyatlari diqqatga sazovordir. Terminologiyaning tarixi turli tillar – qadimgi turkiy, fors-tojik, arab va rus hamda boshqa g‘arb tillari ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, bu murakkab jarayonlarning to‘liq tushunilishi zamonaviy qishloq xo‘jaligi mazmuni tushunchasini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

1. Etimologik tahlilning ahamiyati.

Etimologik tahlil nafaqat terminlarning tarixiy manbasini aniqlash, balki ularning shakllanish qonuniyatlarini, morfologik, fonetik va semantik xususiyatlarini ham yoritish imkonini beradi. Qishloq xo‘jaligi terminlarining etimologik qatlamlari ichida turkiy qatlam alohida o‘rin tutadi. Turkiy qatlamga mansub terminlar xalqimizning qadimiy dehqonchilik madaniyati bilan bog‘liq bo‘lib, ularning aksariyati Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham uchraydi⁶⁶.

Turkiy qatlamga oid qishloq xo‘jaligi terminlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Don ekinlari nomlari:

bug‘doy (qadimgi turkiyda “budg‘ay”)

arpa (qadimgi turkiyda “arpa”)

tariq (qadimgi turkiyda “tarig”)

suli (qadimgi turkiyda “sulig”)²

2. Mehnat qurollari nomlari:

o‘roq (qadimgi turkiyda “oroq”)

ketmon (qadimgi turkiyda “ketman”)

omoch (qadimgi turkiyda “amach”)⁶⁷

3. Dehqonchilik jarayonlari bilan bog‘liq terminlar:

ekin (qadimgi turkiyda “ekin”)

⁶⁶ Турсунов О. Қишлоқ хўжалиги лексикасининг тарихий қатламлари. – Самарқанд: СамДУ, 2020. – Б. 48.

⁶ Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 2017. – Б. 162.

⁶⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2018. – Б. 127-128.

o‘rim (qadimgi turkiyda “*orim*”)

yanchish (qadimgi turkiyda “*yanchmoq*”)⁶⁸

4. Yer bilan bog‘liq terminlar:

qayir (qadimgi turkiyda “*qayir*” – *daryo bo‘yidagi unumdor yer*)

o‘zan (qadimgi turkiyda “*ozen*”)

qir (qadimgi turkiyda “*qir*” - *baland yer*)⁶⁹

Bu terminlarning aksariyati hozirgi kungacha o‘z shakl va ma‘nosini deyarli o‘zgartirmasdan saqlab qolgan, bu esa ularning tilimizdagi barqarorligidan dalolat beradi⁷⁰.

Fors-tojik qatlamiga oid qishloq xo‘jaligi terminlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ekin turlari nomlari:

paxta (forscha “*paxta*”)

sholi (forscha “*sholi*” – *guruch ekini*)

band (forscha “*band*” – *o‘simlik poyasi*)

piyoz (forscha “*piyoz*”)⁷¹

2. Bog‘dorchilik terminlari:

bog‘ (forscha “*bog‘*”)

tokzor (forscha “*tok*” + *o‘zbekcha “-zor”*)

bedazor (forscha “*beda*” + *o‘zbekcha “-zor”*)

gulzor (forscha “*gul*” + *o‘zbekcha “-zor”*)⁷²

3. Yer va tuproq bilan bog‘liq terminlar:

zamin (forscha “*zamin*” – *yer*)

poliz (forscha “*poliz*” – *sabzavot ekiladigan yer*)

palak (forscha “*palak*” – *o‘rmalovchi ekin poyasi*)

shudgor (forscha “*shudgor*” – *haydalgan yer*)⁷³

4. Dehqonchilik jarayonlari:

darav (forscha “*darav*” – *o‘rim-yig‘im*)

objuvoz (forscha “*ob*” – *suv* + “*juvoz*”)

payvand (forscha “*payvand*” – *ulash*)

5. Sug‘orish bilan bog‘liq terminlar:

jo‘y (forscha “*jo‘y*” – *ariq*)

ob (forscha “*ob*” – *suv*)

zax (forscha “*zax*” – *nam*)

novur (forscha “*novur*” – *suv yo‘li*)⁷⁴

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan terminlar o‘zbek tili qonuniyatlariga moslashgan, ko‘plari yangi so‘zlar yasashda faol ishtirok etadi. Masalan: *bog‘dor*, *bog‘bon*, *gulkor*, *polizchi* kabi kasb-hunar bilan bog‘liq terminlar⁷⁵.

⁶⁸ Содиков Қ. Туркий тил тарихи. – Тошкент: ТошДУ, 2019. – Б. 156.

⁶⁹ Муродов А. Ўзбек кишлоқ хўжалиги терминологияси. – Тошкент: Фан, 2015. – Б. 72-73.

⁷⁰ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 2016. – Б. 92.

⁷¹ Муродов А. Ўзбек кишлоқ хўжалиги терминологияси. – Тошкент: Фан, 2015. – Б. 89.

⁷² Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 2016. – Б. 124.

⁷³ Содиков Қ. Туркий тил тарихи. – Тошкент: ТошДУ, 2019. – Б. 178.

⁷⁴ Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 145.

Bu qatlamga oid terminlarning ko‘pchiligi xalq xo‘jaligining turli sohalarida keng qo‘llaniladi va hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular qishloq xo‘jaligi terminologiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida soha rivojiga xizmat qilmoqda⁷⁶.

Qishloq xo‘jaligi terminologiyasida arab va rus tili orqali o‘zlashgan qatlamlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, soha terminologiyasini boyitishga xizmat qilgan⁷⁷.

Arab tilidan o‘zlashgan terminlar quyidagi mavzuiy guruhlariga bo‘linadi:

1. Xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq terminlar:

hosil (arab. “*hāsīl*” – natija)

mahsulot (arab. “*mahsulāt*” – ishlab chiqarilgan narsa)

foyda (arab. “*fāida*” – naf)

zarar (arab. “*zarar*” – ziyon)⁷⁸

2. Kasb-hunar bilan bog‘liq terminlar:

dehqon (arab. “*dehqān*” – yer egasi)

amal (arab. “*amal*” – ish, faoliyat)

isloh (arab. “*islāh*” – yaxshilash)⁷⁹

3. Yer va tuproq sifatleri:

arzon (arab. “*arz*” – yer)

xossa (arab. “*xāssa*” – xususiyat)

tabiiy (arab. “*tabū’iy*” – tabiatga oid)⁸⁰

Rus tili va u orqali o‘zlashgan xalqaro terminlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Kasb va mutaxassislik nomlari:

agronom (yunon. “*agros*” – dala + “*nomos*” – qonun)

mexanizator (yunon. “*mechane*” – qurol)

fermer (ing. “*farmer*”)

brigadir (fran. “*brigadier*”)

Texnika va qurilmalar nomlari:

traktor (lot. “*trahere*” – tortmoq)

kombayn (ing. “*combine*”)

kultivator (lot. “*cultura*” – ishlov)

seyalka (rus. “*seyat*” – ekmoq)

Agrokimyoviy terminlar:

mineral (fran. “*mineral*”)

nitrat (lot. “*nitrum*”)

pestisid (lot. “*pestis*” – zararli + “*caedo*” – o‘ldirmoq)

gerbisid (lot. “*herba*” – o‘t + “*caedo*” – o‘ldirmoq)

Agrotexnik jarayonlar:

⁷⁵ Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 2017. – Б. 198.

⁷⁶ Ёқубов Н. Қишлоқ хўжалиги терминларининг таржима масалалари. – Тошкент: ТошДАУ, 2018. – Б. 112.

⁷⁷ Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 2017. – С. 145.

⁷⁸ Содиков Қ. Туркий тил тарихи. – Тошкент: ТошДУ, 2019. – Б. 198.

⁷⁹ Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 2017. – Б. 223.

⁸⁰ Ёқубов Н. Қишлоқ хўжалиги терминларининг таржима масалалари. – Тошкент: ТошДАУ, 2018. – Б. 167.

kultivatsiya (lot. “cultivation”)

defoliatsiya (lot. “de” + “folium” – barg)

irrigatsiya (lot. “irrigation”)

melioratsiya (lot. “melioratio” – yaxshilash)

Zamonaviy qishloq xo‘jaligi terminologiyasida rus tili va xalqaro terminlarning faol qo‘llanishi sohaning ilmiy-texnik taraqqiyoti, xalqaro aloqalarning kengayishi bilan bog‘liq. Bu terminlar qishloq xo‘jaligining zamonaviy yo‘nalishlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur aspektlar birgalikda qishloq xo‘jaligi terminologiyasining boyligi va uning dinamik rivojlanishini aks etadi. Terminlarning turli tillar orqali o‘zlashganligi va ularning o‘zaro ta’siri ularni faqat lingvistik, balki madaniy, tarixi-iqtisodiy va texnologiyaviy jihatdan ham muhim qiladi.

Qishloq xo‘jaligi terminlarining etimologik tahlili nafaqat ularning kelib chiqishini aniqlash, balki terminlarning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish, terminologik tizimning rivojlanish tendensiyalarini belgilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hojiyev A. O‘zbek tili terminologiyasi. – Toshkent: Fan, 2011.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent, 2008.
3. Shomaqsudov A., Rasulov I. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent, 2002.
5. Makhmudova D.A. National-Cultural Semantics Of Agricultural Terms In Artistic Works // Educator Insights: A Journal of Teaching Theory and Practice, Volume-01/Issue 06, June, 2025. – Pp. 183-188. (ISSN:3061-6964, №12, Impact factor:10,36)
6. Makhmudova D.A. Places Of Use And Classification Of Agricultural Terms In Artistic Text // EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, Volume 01/Issue 06, June, 2025. – Pp. 178-183. (ISSN:3061-6972, №11, Impact factor:10,22)
7. Maxmudova D.A. Badiiy matnda qishloq xo‘jaligi terminlarining aks ettirilishi // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2023, 3-son. – B. 424-428. (10.00.00. – №26).
8. Maxmudova D.A. Qishloq xo‘jaligi terminlari badiiy adabiyotda sayqallanishi // @Til va adabiyot.uz. – Toshkent, 2024. – №20/1. – B. 105-107. (OAK Rayosatining 2023 - yil 3-iyundagi 338/6-son qarori)
9. Makhmudova D.A. Agricultural Terms // Conference On Scientific Research And Problems Of Society, January 10, 2023. – Pp. 85-88.
10. Maxmudova D.A. Badiiy matnda qishloq xo‘jaligi terminlaridan foydalanish matn ta’sirchanligini oshiruvchi omil sifatida // “Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi” III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Jizzax, 2023-yil 4-may. – B. 143-145.

11.Maxmudova D.A. Qishloq xo‘jaligi terminlarining badiiylashuvi // Filologiyaning dolzarb masalalari (Professor Odiljon Bozorov tavalludining 75 yilligiga bag‘ishlanadi). – Qo‘qon, 2023. – B. 250-252.

12.Maxmudova D.A. Qishloq xo‘jaligi terminlari lingvopoetikasi // “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va neyropsixolingvistika muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona: FarDU, 2024. – B. 302-304.